

XITOIY MATBUOTI TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (618–1912 YILLAR)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10199289>

O‘ktamova Nazokat

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Oliy
jurnalistika kurslari 2–kurs magistranti, Uzbekistan

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy matbuotining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, matbuotning vazifasi, o‘ziga xos jihatlari Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalar davriga ajratilib o‘rganiladi. Matbuotning tarixiy taraqqiyot omillarini yoritish maqsadida o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan birlamchi manbalardan foydalanilib, Xitoy tarixshunos olimlari tomonidan keltirilgan tarixiy faktlar solishtiriladi. Maqola yakunida tiklangan ma’lumotlardan tizimlashtirilgan, yaxlit xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: xitoy matbuoti, Di Bao, Kaiyuan yangiliklari, Bao Zuang, bosma harf, Jin Zuo Yuan, sulola.

CHINESE PRESS HISTORY AND DEVELOPMENT TRENDS (618-1912)

Abstract. In this article, the history of the emergence and development of the Chinese press, the function of the press, and its specific aspects are studied separately during the dynasties that ruled China. In order to shed light on the historical development factors of the press, primary sources are used, not limited to information in the Uzbek language, and historical facts presented by Chinese historians are compared. At the end of the article, a systematic, comprehensive conclusion is drawn from the recovered information.

Keywords: Chinese press, Di Bao, Kaiyuan news, Bao Zhuang, printed letter, Jin Zuo Yuan, dynasty.

Xitoyda matbuotning paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga ega. Bu haqida turli manbalarda turlicha ma’lumotlar uchraydi. O‘zbek xitoyshunos olimlari Shazamanov Sh. va Bekmurotov I. aytishicha eramizning VIII asrida Xitoyda hukmronlik qilgan Tan sulolasi (618–907) davrida “Di Bao” (“邸报”, “Saroy ro‘znomasi”) nomli gazeta chop etilgani ko‘rsatilgan¹.

Xitoylik tarixchi olim Fan Han Ji keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, qog‘ozga ko‘chirilgan dunyodagi eng dastlabki gazetalar IX asrning 80–yillarida, bosma

¹ Shazamanov Sh., Bekmurotov I. Xitoy matbuot tarixi va tili. – Toshkent, 2010. – B. 5.

shakldagi gazetalar esa X asrda Xitoyda paydo bo‘lgan. Xitoyda birinchi rasmiy gazeta Tan sulolasi imperatori Suan Zong (712–756) tomonidan hukmronligining 12–14–yillarida nashr etilgan va “Kaiyuan zabao” (“开元杂报”, “Kaiyuan yangiliklari”) deb nomlangan. Sun imperiyasi (960–1279) davriga kelib rasmiy gazetalar nashri ortib bordi va “Di Bao” nomi paydo bo‘ldi. Ushbu gazetaning asosini imperator farmonlari, kundalik vazifalari, hukumat qarorlari, byulletenlar, vazirlikning eslatmalari, ibodatxona nazoratchilari va boshqa muassasalarning ish hisobotlari, chegara qo‘shinlarining jangovor hisobotlari tashkil etgan. Sun imperiyasi hukumdorligi davrida “Di Bao” gazetasining faoliyatini qattiq nazorat ostida ushlagan².

Van Jia Lin ham Xitoyda qadimgi rasmiy gazetalar ilk bor Tan sulolasidan boshlanganligi, Sun imperiyasi davriga kelib “Di bao”ga asos solinganini tasdiqlaydi va quyidagi ma’lumotlarni keltiradi. Tan sulolasi davrida gazetalar ikki turga bo‘lingan: Markaziy sud tomonidan tuziladigan va chiqariladigan rasmiy gazetalar va Pekin gubernatori tomonidan tuzilgan va chiqariladigan rasmiy gazetalar. Markaziy sud tomonidan tuziladigan va chiqariladigan Tan sulolasining rasmiy gazetasi “Bao Zuang” va “Bao”, (“报状”, “报”(bao zhuang), “xabar berish”, “yangilik”) deb nomlangan. “Bao Zuang” atamasini Tang sulolasi hukmdori Zong Dali (766–779) davrida Van Jian tomonidan yozilgan she’rda ko‘rishimiz mumkin. Kitobda Tan sulolasi davridagi gazetaga nisbatan “Kaiyuan yangiliklari” emas “Bao Zuang” atamasi qo‘llanilgani haqidagi ma’lumotlar keltirilgan³.

Tan sulolasida Markaziy sud rasmiy gazetasidan tashqari Pekin gubernatori tomonidan tuzilgan va chiqariladigan rasmiy gazetalar ham mavjud bo‘lganligini yuqorida aytib o‘tildi. Ushbu turdagi ma’lumotlar poytaxtdagi “Jin Zuo Yuan” (“进奏院”⁴) tomonidan ko‘chirilgan va “Di Li Zuang” (“邸吏状”) nomi ostida chiqarilgan. Tan sulolasida gazetalarda taqdim etilgan ma’lumotlarning aksariyati imperator saroyining siyosiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan, ijtimoiy hayot yoritilmagan, hamda yuqori martabali amaldorlar uchun nusxa ko‘chirilgan⁵. Sun imperiyasi davrida “Jin Zuo Yuan” faoliyati qayta tiklandi⁶.

Tarixga nazar tashlansa navbatdagi tarixiy bosqich Yuan sulolasi (1279–1368) davridagi gazetalar haqida ma’lumot yo‘q. Ming sulolasi(1368–1644) davrida imperator saroyining rasmiy gazetasi “Di Bao” (“邸报”) nomi bilan tiklandi, ba’zan

² 方汉奇. 中国古代的报纸. - 北京: 中国人民大学出版社, 1979. - 第 5 - 8 页.

³ 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 第 16 - 18 页.

⁴ Tan sulolasi davrida poytaxt hisoblangan Changan shahrida joylashgan markaziy hokimiyat va provinsiylar orasidagi aloqa agentligi.

⁵文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 第 22 - 24 页.

⁶ 徐松. 宋会要辑稿. - 北京: 中国人民大学出版社, 2002. - 第 10 页.

esa “Di Chao” (“邸钞”) deb ham atalgan. Ming sulolasi davrida bosma nashrlarda katta rivojlanish yuz berdi. Sun imperiyasi davrida bosma harflar ixtiro qilingan bo‘lsa-da, targ‘ib qilinmadi va yangiliklarni tarqatishda qo‘llanilmadi. Ming sulolasining oxirida “Di Bao” nashri bosma harflarga o‘zgartirildi. Bu haqida “Ting Lin saralangan asarlar” (“亭林文集”) kitobida muallif shunday degan “Ming sulolasining so‘nggi imperatori Chong Jen (1627–1644) hukumdorligining o‘n birinchi yiligacha gazetalarning bosma harf shakli bo‘lmagan”⁷. Demak bundan kelib chiqadiki, gazetalarning bosma harf shakli 1639-yil paydo bo‘lgan.

Ven Jia Lin “Di Bao” gazetasini bosma harflar yordamida nashr etish Xitoyning yangiliklarni tarqatish texnologiyasida katta muvaffaqiyat hisoblanib ham mamlakat, ham dunyo jurnalistikasi tarixidagi muhim voqea sifatida baholangan. Biroq bu qadimgi rasmiy gazetalarning rivojlanishiga yordam bermadi⁸.

Ming sulolasi davriga kelib rasmiy gazetarlar imperator tomonidan qattiq nazorat qilinib quyidagi qonunga amal qilingan: “Hikoyalar va imperator yodgorliklaridan nusxa ko‘chirilmaydi va begona odamlar ularni tinglash uchun hech qanday sababga ega emas; ehtiyoj bo‘lmasa, “Di Bao” gazetasidan nusxa ko‘chirishga ruxsat berilmaydi”⁹. Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, dastlabki gazetalarning ommaviyligi hukumat doirasida qolib ketgan, deyarli rasmiy axborotnoma xususiyatiga ega bo‘lgan va buyurtma bilan aniq terajda chiqarilgan.

Tan va Sun imperiyasida bo‘lganidek Ming sulolasi davrida ham “Di Bao”da imperator farmonlari va sud qarorlari kabi rasmiy hujjatlar nashr etilganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo Ming sulolasining oxirida “Di Bao” gazetasida kichik miqdordagi ijtimoiy yangiliklar paydo bo‘la boshladi, bu esa Xitoy gazetalari uchun katta yutuq bo‘ldi.

Taxminan ming yillik rivojlanishdan so‘ng, Chin sulolasi(1644-1912)da rasmiy gazetalarni tarqatish qamrovi kengayib, undan olimlar va ziyolilar kabi auditoriya guruhlari ham foydalana boshladi, lekin gazetarlar hali oddiy odamlarga yetib bormadi¹⁰. Chin sulolasi davrida “Jin Zuo Yuan” amaldorlariga turli provinsiyalarning ehtiyojlariga ko‘ra gazetalarni ko‘chirishga ruxsat berildi. Uzoq vaqt davomida Xitoy gazetalari qo‘lyozma shaklida ko‘paytirilgan. Chin sulolasining o‘rtalariga kelibgina bosma usul asosiy texnologiyaga aylandi¹¹. Demak, Cheng

⁷顾炎武亭林文集,第3卷第15页,见戈公振《中国报学史》. - 香港:中国新闻出版社,1985.第29页.

⁸文家林.中国新闻事业史. - 湖北:武汉大学出版社,2011. - 第25页.

⁹文家林.中国新闻事业史. - 湖北:武汉大学出版社,2011. - 第26页.

¹⁰周询.蜀海丛谈,卷二“奏折”,见程丽红《清代报人研究》. - 北京:社会科学文献出版社,2008. - 第45页.

¹¹文家林.中国新闻事业史. - 湖北:武汉大学出版社,2011. - 第28-29页.

sulolasi davrida gazetalar buyurtma bilan aniq terajda hukumat amaldorlaridan tashqari ziyolilar uchun ham chiqarilgan, ammo oddiy xalq bundan mustasno edi.

Taipin Samoviy Qirolligi (1851–1864) tashkil etilgach, qirol Hong Siuchuan Tyanjinni o‘zining poytaxti sifatida belgilaganidan so‘ng, markaziy va mahalliy hukumatlar o‘rtasida ma’lumot almashish va harbiy operatsiyalarni samarali boshqarish uchun u ikki rasmiy hisobot tizimini yaratdi. Biri “hukumatga hisobot berish” bo‘lib uning vazifasi imperator farmonlari, rasmiy hujjatlarini e‘lon qilish uchun mas‘ul bo‘lgan, “shufu hukumati” esa harbiy yangiliklarni yetkazish uchun mas‘ul edi¹².

1898–yil Chin sulolasida imperator Guangsu bir necha qonuniy kuchga ega bo‘lgan farmonlar chiqarib, rasmiy gazetalar va fuqarolik gazetalarining huquqiy maqomini rasman tan oldi¹³. Imperator Guangsu davriga kelibgina birinchi marta amaldorlar, zodagonlar va oddiy odamlar gazetalarini yuritish erkinligiga ega bo‘ldilar.

“Yuz kunlik islohot” davrida hukumat amaldori Song Bolu Shanhaydagi islohotchilar tomonidan asos solingan “Joriy yangiliklar” (“时务报”)ni rasmiy gazetaga aylantirishni so‘radi va bu taklif imperator Guangsu tomonidan ma’qullandi. Ushbu gazetada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealar, xorij yangiliklari ochiq–oydin chop etila boshlandi¹⁴. Imperator Guangsu davrida gazetaning rivojlanishi uchun bildirilgan takliflar qo‘llab-quvvatlandi va xorijda yuz berayotga yangiliklar ham gazeta sahifalaridan joy ola boshladi.

Chin sulolasi oxiriga kelib 1902–yilda “Beiyang yangiliklari” (“北洋官报”) nomli yangi rasmiy gazetaga asos solindi. Gazeta 1911–yil oktyabrigacha nashr etilgan bo‘lib dastlab ikki kunlik nashr sifatida chop etilgan va 1906-yil yanvar oyida kundalik nashrga o‘zgartirilgan, hajmi 8 va 10 sahifani tashkil etgan. Bu Chin sulolasi oxirgi davrida mahalliy hukumat organi gazetasi bo‘lib xizmat qilgan rasmiy gazetadir.

“Beiyang yangiliklari”da farmon va olib borilayotgan siyosat, ta’lim tizimi va harbiy ishlar, turli tadqiqotlarning yangi nazariyalari, qishloq xo‘jaligi, savdo, sanoat, tashqi ishlar bo‘yicha muzokaralar, provinsiyalar va boshqa mamlakatlar yangiliklari haqida xabarlar berib borilgan¹⁵. Chin sulolasi hukmdorligining so‘nggi yillarida gazetalarda hukumat siyosati, ijtimoiy hayot va xorijiy yangiliklardan tashqari iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ilm-fandagi yangiliklar, tashqi siyosat ham yoritilishi boshlanganligi bilan zamonaviy gazetalar xususiyatlariga ega bo‘lgan.

¹² 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 第 30 页.

¹³ 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 第 32 - 33 页.

¹⁴ 梁启超. 戊戌政变记. - 上海: 中华书局, 1954. - 第 35 页.

¹⁵ 文家林. 中国新闻事业史. - 湖北: 武汉大学出版社, 2011. - 第 35 - 38 页.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xitoyda ilk gazetalar Tan sulolasi davrida “Bao Zuang” va “Di Li Zuang” nomlari bilan chop etilgan. Sun sulolasi davrida “Di Bao” gazetasiga asos solingan va gazetalardagi xabarlar imperator saroyining siyosiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan, ijtimoiy hayot yoritilmagan, hamda yuqori martabali amaldorlar uchungina nusxa ko‘chirilgan. Ming sulolasining dastlabki yillarida ham ushbu qat’iy tizim saqlanib qolinib, sulolaning so‘ngi yillariga yaqin gazetalarda ijtimoiy yangiliklar yoritila boshlandi va Xitoy matbuoti tarixadagi ulkan yangilikni boshlab berdi. Xitoy matbuotining eng rivojlangan davrini Chin sulolasi bilan bog‘lash mumkin. Chin sulolasiga kelib gazetalarni tarqatish qamrovi kengayib, undan oddiy xalqdan tashqari olimlar va ziyolilar kabi auditoriya guruhlari foydalana boshladi, bosma usul texnologiyasi yaratildi, matbuotning maqomi oshdi va gazetalarni yuritish uchun barchaga ruxsat berildi. Gazetalarda hukumat siyosati, ijtimoiy hayot va xorijiy yangiliklardan tashqari iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ilmfandagi yangiliklar, tashqi siyosat ham yoritilishi boshlangani e‘tiborga loyiq yangilik bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Shazamanov Sh., Bekmuratov I. Xitoy matbuot tarixi va tili. – Toshkent, 2010. – 120 b.
2. 方汉奇. 中国古代的报纸. – 北京: 中国人民大学出版社, 1979. – 1000 页.
3. 文家林. 中国新闻事业史. – 湖北: 武汉大学出版社, 2011. – 464 页.
4. 徐松. 宋会要辑稿. – 北京: 中国人民大学出版社, 2002. – 366 页.
5. 顾炎武. 亭林文集, 第 3 卷第 15 页, 见戈公振《中国报学史》. – 香港: 中国新闻出版社, 1985. – 320 页.
6. 周询. 蜀海丛谈, 卷二 “奏折”, 见程丽红《清代报人研究》. – 北京: 社会科学文献出版社, 2008. – 266 页.
7. 梁启超. 戊戌政变记. – 上海: 中华书局, 1954. – 470 页.